



THE “GREAT GAME” IN 19TH-CENTURY CENTRAL ASIA: GEOPOLITICAL RIVALRY AND IMPERIAL STRATEGY

Turaqul Hasanboyev

Lecturer, Faculty of History

Jizzakh State Pedagogical University

Jizzakh, Uzbekistan

Odina Abduljalilova

Second-year student, Faculty of History

Jizzakh State Pedagogical University

Jizzakh, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Central Asia, Great Game, Russian Empire, British Empire, khanates, diplomacy, intelligence, military policy, economic relations, Bukhara, Kokand, Khiva.

Received: 19.04.26

Accepted: 20.04.26

Published: 21.04.26

Abstract: This study examines the strategic rivalry between the Russian and British Empires in Central Asia during the 19th century “Great Game.” It explores the political, economic, and military conditions of local khanates, as well as intelligence activities and diplomatic relations. The research is based on historical sources, ambassadorial letters, and expedition reports. The topic is relevant not only historically but also for contemporary geopolitical analysis. The findings provide insights into imperial policies and the dynamics of regional power relations.

XIX ASR MARKAZIY OSIYODA “BUYUK O‘YIN”: GEOSIYOSIY RAQOBAT VA IMPERIAL STRATEGIYA

To‘raqul Hasanboyev

Tarix fakulteti o‘qituvchisi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Jizzax, O‘zbekiston

Odina Abduljalilova

Tarix fakulteti II-bosqich talabasi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Jizzax, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Markaziy Osiyo, Buyuk oʻyin, Rossiya imperiyasi, Buyuk Britaniya, xonliklar, diplomatiya, razvedka, harbiy siyosat, iqtisodiy aloqalar, Buxoro amirligi, Qoʻqon xonligi, Xiva xonligi.

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot XIX asr Markaziy Osiyo hududida “Buyuk oʻyin” davrida Rossiya va Buyuk Britaniya imperiyalari oʻrtasidagi strategik raqobatni tahlil qiladi. Ishda mahalliy xonliklarning siyosiy, iqtisodiy va harbiy holati, shuningdek, razvedka faoliyati va diplomatik aloqalar oʻrganilgan. Tadqiqot tarixiy manbalar, elchi xatlari va ekspeditsiya hisobotlariga asoslanadi. Mavzu nafaqat tarixiy, balki zamonaviy geopolitik tahlil uchun ham dolzarbdir. Tadqiqot natijalari Markaziy Osiyo hududidagi imperial siyosat va hududiy kuchlar oʻrtasidagi munosabatlarni chuqur tushunishga xizmat qiladi.

“БОЛЬШАЯ ИГРА” В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ XIX ВЕКА: ГЕОПОЛИТИЧЕСКОЕ СОПЕРНИЧЕСТВО И ИМПЕРСКАЯ СТРАТЕГИЯ

Туракул Хасанбоев

Преподаватель, исторический факультет

Джизакский государственный педагогический университет

Джизак, Узбекистан

Одина Абдужалилова

Студентка 2 курса, исторический факультет

Джизакский государственный педагогический университет

Джизак, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Центральная Азия, Большая игра, Российская империя, Британская империя, ханства, дипломатия, разведка, военная политика, экономические связи, Бухара, Коканд, Хива.

Аннотация: Данное исследование анализирует стратегическое соперничество между Российской и Британской империями в Центральной Азии в XIX веке, во время «Большой игры». Рассматриваются политическое, экономическое и военное положение местных ханств, а также разведывательная деятельность и дипломатические связи. Исследование основано на исторических источниках, письмах послов и отчетах экспедиций. Тема актуальна не только с исторической, но и с точки зрения современной геополитики. Результаты исследования способствуют глубокому пониманию имперской политики и отношений сил в регионе.

Kirish. XIX asr Markaziy Osiyo geopolitikasi va “Buyuk o‘yin” davri mintaqaviy siyosiy, iqtisodiy va harbiy jarayonlarni tushunishda muhim manba hisoblanadi. Bugungi kunda Markaziy Osiyo davlatlari o‘z mustaqil siyosiy va iqtisodiy yo‘nalishlarini belgilash jarayonida tarixiy tajribani o‘rganish zarur. Imperial raqobatning hududiy ta’sirlari, mahalliy xonliklar va xalqaro kuchlar o‘rtasidagi munosabatlar, shuningdek hududning strategik ahamiyati global siyosatdagi o‘xshash vaziyatlarni tahlil qilishda foydali bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, tadqiqot mahalliy tarixiy manbalarni ilmiy tahlil qilish va xalqaro kontekst bilan bog‘lash imkonini beradi. XIX asrdagi strategik raqobat va diplomatik siyosatning insoniy va siyosiy oqibatlari zamonaviy geopolitik tahlillarda dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Metodlar va o‘rganilganlik darajasi. Tadqiqotda tarixiy-metodologik yondashuvlardan keng foydalanilgan bo‘lib, asosiy metod sifatida tahliliy, solishtirma va manba asosida izlanish metodlari qo‘llanilgan. Shuningdek, hududiy va siyosiy-geografik tahlil orqali XIX asr Markaziy Osiyo xonliklarining siyosiy va iqtisodiy holati aniqlangan. Tadqiqotda ilk qo‘l manbalar, diplomat va ekspeditsiya xatlari, shuningdek ingliz va rus tarixiy adabiyotlari asosiy ma’lumot manbai sifatida ishlatilgan. Mavzu bugungi kunda nisbatan o‘rganilgan bo‘lsa-da, ko‘plab jihatlari, xususan mahalliy xonliklar bilan imperial davlatlar o‘rtasidagi strategik aloqalar va razvedka faoliyati, yetarlicha ilmiy tahlil qilinmagan. Shu bilan birga, mintaqa tarixining global kontekst bilan bog‘lanishi va geopolitik o‘rganilishi kam yoritilgan. Tadqiqot metodikasi tarixiy faktlarni ilmiy talqin qilish va ularni siyosiy-geografik vaziyat bilan uyg‘unlashtirishga imkon beradi.

Tadqiqot natijalari. XIX asrning birinchi yarmida Markaziy Osiyo hududi nafaqat geografik, balki strategik jihatdan ham global imperiyalar e’tibor markaziga aylangan. Rossiya imperiyasi va Buyuk Britaniya o‘rtasidagi raqobat hududning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarini tubdan o‘zgartirishga qaratilgan. Shu davrda hududda yashovchi mahalliy xonliklar, jumladan Buxoro, Qo‘qon va Xiva, nafaqat o‘z mustaqilliklarini saqlashga harakat qilgan, balki imperial manfaatlarni balanslashtirish orqali strategik ustunlikni qo‘lga kiritishga intilgan.

XIX asr o‘rtalarida Markaziy Osiyoda Rossiya imperiyasi va Buyuk Britaniya o‘rtasidagi strategik raqobat keskin tus oldi. Tarixiy manbalarda bu jarayon “Buyuk o‘yin” nomi bilan qayd etilgan. Raqobat markazida Turkiston hududi va unga yaqin Afg‘oniston, Eron va Tibet hududlari joylashgan edi. Har ikki imperiya o‘z ta’sirini kengaytirish va iqtisodiy foyda olish maqsadida diplomatik, razvedka va harbiy strategiyalarni ishlab chiqqan[1].

Rossiya imperiyasi o'z ta'sirini kuchaytirish maqsadida Turkiston hududida shaharlar va o'rta darajadagi boshqaruv tizimlariga to'g'ridan-to'g'ri nazorat o'rnatishni boshladi. Samarqand va Toshkent shaharlarida qo'shma harbiy va ma'muriy idoralar tashkil qilinib, ularning orqali hududiy resurslar va soliq tizimi imperiyaning iqtisodiy siyosatiga moslashtirildi. Shu bilan birga, hududda ilmiy ekspeditsiyalar va harbiy kuzatuvlar amalga oshirildi. Ularning maqsadi nafaqat geografik xaritalarni tuzish, balki hududdagi ijtimoiy va siyosiy aloqalarni aniqlash edi. Mahalliy elita va amirlar bilan o'tkazilgan muzokaralar orqali Rossiya protektorat tizimi bosqichma-bosqich joriy qilindi.

Buyuk Britaniya XIX asr boshlarida Hindiston va Afg'oniston hududlaridan turib, O'zbek xonliklari bilan savdo va diplomatik aloqalarni rivojlantirishga kirishdi. Ingliz elchilari va josuslari, jumladan U. Murkrofd, A. Byorns, Charlz Stoddart, Artur Konolli, Iosif Volf, Jeyms Abbot va Richard Shekspirilar 1830–1850 yillar davomida mintaqaga yuborilgan. Ularning maqsadi Rossiya imperiyasining iqtisodiy va siyosiy ta'sirini cheklash, shuningdek, O'zbek xonliklarini birlashtirib, Britaniya manfaatlariga xizmat qilish edi[2].

Buyuk Britaniya esa Hindiston va Afg'oniston orqali Markaziy Osiyoga ta'sir ko'rsatishga harakat qilgan. Britaniya strategiyasining asosiy yo'nalishi Rossiyaning janubga kengayishini to'xtatish, shuningdek, Hind okeani va Fors ko'rfazi orqali savdo yo'llarini himoya qilish edi. Britaniya razvedkasi va diplomatlari hududiy siyosatni shakllantirish uchun mahalliy xonliklarga iqtisodiy va harbiy maslahatlar berish bilan birga, maxfiy ma'lumotlarni to'plagan. Bu jarayon hududiy aloqalarni kuchaytirish, mahalliy qo'shinlarni Rossiya ekspansiyasiga qarshi tayyorlash va strategik muvozanatni saqlashga xizmat qilgan.

Xonliklar ichida ichki siyosiy va ijtimoiy munosabatlar ham imperial raqobatga ta'sir ko'rsatgan. Masalan, Buxoro amirligi ichki siyosiy nizolarni tartibga solish, elita o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni boshqarish orqali Rossiya bilan munosabatlarni mustahkamlashga intilgan. Shu bilan birga, mahalliy iqtisodiy tizimni kuchaytirish va shaharlararo savdo yo'llarini nazorat qilish orqali o'z mustaqilliklarini saqlashga harakat qilgan. Qo'qon va Xiva xonliklari ham shunga o'xshash strategiyani qo'llagan.

Rossiya imperiyasi esa Turkistonni ilmiy, harbiy va siyosiy jihatdan o'rganishga jiddiy e'tibor qaratdi. 1800-yillardan boshlab yuborilgan ekspeditsiyalar xonliklarning harbiy, siyosiy va iqtisodiy holati bo'yicha batafsil ma'lumotlar to'pladi. Ushbu tadqiqotlar keyinchalik Rossiyaning harbiy bosqinchiligi uchun asos bo'ldi. Rossiya ekspeditsiyalari nafaqat harbiy strategiya, balki iqtisodiy resurslarni baholash, hududiy yo'llarni aniqlash va mahalliy boshqaruv tizimini o'rganishga qaratilgan[6].

XIX asrning o'rtalarida hududdagi neft va mineral zaxiralarining ahamiyati ortib bordi. Bu esa Markaziy Osiyoning strategik ahamiyatini yanada oshirdi. Rossiya va Britaniya imperializmi hududni faqat harbiy nazorat nuqtai nazaridan emas, balki iqtisodiy resurslarni qo'lga kiritish, transport yo'llarini boshqarish va yangi xomashyo konlarini egallash sifatida ham baholadi. Shu sababli hududiy ekspeditsiyalar nafaqat ilmiy, balki siyosiy va strategik vazifalarni ham bajarishga yo'naltirilgan edi.

O'rta Osiyoga yuborilgan birinchi ingliz josusi 1812–1813 yillarda Mir Izzatulla bo'lib, u Buxoro va Farg'ona vodiysida sayohat qilgan. Mir Izzatulla "Travels in Central Asia" asarida shaharlar mudofasi, qo'shinlar soni va xonliklarning siyosiy-iqtisodiy holatini batafsil qayd qilgan. Masalan, u Buxoro amirligi 100 ming oqliq qo'shin bilan eng kuchli xonlik bo'lganini, Qo'qon xonligi esa 40 minglik qo'shini bilan ikkinchi o'rinda turishini yozgan[5]. Shu bilan birga, u shaharlar va qishloqlar orasidagi masofa, shahar mudofasi va askarlarning tarkibi kabi tafsilotlarni ham qayd etgan.

Uilyam Murkrofd 1819–1825 yillarda Buxoro amirligiga ekspeditsiya qilgan va o'z "Travels in the Himalayan Provinces of Hindustan and the Panjab" asarida Buxoro va Qo'qonning harbiy kuchlari va savdo aloqalarini yoritgan[4]. Murkrofdning kuzatuvlari Rossiya va Britaniya imperiyalari uchun strategik ma'lumot sifatida xizmat qilgan. Aleksandr Byorns esa 1831–1833 yillarda Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarining siyosiy va harbiy holatini tahlil qilgan, shu bilan birga hududiy raqobat va qo'shinlar sonini aniqlashda muhim rol o'ynagan[3].

Buyuk Britaniya tomonidan 1838 yilda Buxoroga maxsus topshiriq bilan yuborilgan polkovnik Stoddart missiyasi Rossiyaning janubga kengayishiga qarshi choralar ko'rish maqsadida amalga oshirilgan. Stoddart Buxoro amirini Rossiya ta'siridan ogohlantirish va Britaniya bilan ittifoq tuzishga ishontirishga harakat qilgan, ammo muvaffaqiyatsiz yakunlangan. Shu davrda Kapitan Konolli Xiva va Qo'qon xonliklariga shunga o'xshash diplomatik missiya bilan yuborilgan, ammo u ham amirlarning qaroriga duch kelib, qatl etilgan[7]. Ushbu voqealar Buyuk Britaniya razvedkasi va diplomatiyasining murakkab sharoitini ko'rsatadi.

Rossiya imperiyasi esa Turkistonda o'z tasarrufini kengaytirishda davom etdi. 1865 yilda Toshkent, 1868 yilda Buxoro protektorati, 1873 yilda Xiva va 1876 yilda Qo'qon xonligi Rossiya nazoratiga o'tdi. Ushbu voqealar va ularning borishi keying davrlarda keng o'rganila boshlandi. Tadqiqotchi Morrison (2008) Samarqand va Toshkentda Rossiya boshqaruvi ostidagi siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlarni batafsil tahlil qiladi[9]. Becker esa (1968) Markaziy Osiyodagi protektorat tizimini va mahalliy boshqaruvning o'ziga xos xususiyatlarini yoritadi[8].

XIX asr oxiriga kelib, “Buyuk o‘yin” 1907 yilda Britaniya-Rossiya konvensiyasi bilan rasmiy yakun topdi. Ushbu kelishuv orqali Britaniya Afg‘onistonni protektoratga aylantirishni davom ettirdi, Rossiya esa Turkiston va Shimoliy Eron hududidagi pozitsiyalarini mustahkamladi. Shuningdek, “British Parliamentary Papers” (1843) hujjatlari o‘sha davr diplomatik aloqalar va razvedka faoliyatining mohiyatini yoritadi[10].

Xonliklar va mahalliy elita o‘rtasidagi diplomatik aloqalar bu davrda ko‘p hollarda imperial strategiyaning vositasi sifatida ishlatilgan. Rossiya va Britaniya o‘rtasidagi strategik raqobat shuni ta’kidlash joizki, hududdagi shaharlar va qishloqlar nafaqat o‘yin maydoni, balki resurslar va strategik hududlarni nazorat qilish vositasi sifatida ko‘rilgan.

Shu tariqa, XIX asr markaziy Osiyoda Rossiya va Buyuk Britaniya o‘rtasidagi strategik raqobat mintaqaviy siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. “Buyuk o‘yin” nafaqat imperial ekspansiya, balki mahalliy xonliklar, iqtisodiy resurslar va hududiy strategiya o‘rtasidagi murakkab aloqalarni aks ettiradi[10].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, XIX asr Markaziy Osiyo uchun murakkab va xavfli davr bo‘lgan. “Buyuk o‘yin” nafaqat imperial raqobatni, balki mahalliy xonliklar va xalqaro strategik muvozanatning murakkab tizimini ochib bergan. Ushbu davr mintaqaviy siyosat, ijtimoiy tuzilma va iqtisodiy manbalarni tahlil qilish uchun muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Markaziy Osiyoda ikki imperiyaning strategik raqobati tub ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlarga olib keldi. Bu jarayon nafaqat harbiy bosqinchilik yoki diplomatik kelishuvlar orqali, balki mahalliy siyosat, savdo yo‘llari, razvedka xizmati va global imperial strategiyalar orqali ham amalga oshdi. “Buyuk o‘yin” mintaqaviy va xalqaro geosiyosiy raqobatning murakkab tabiatini aks ettiradi va bugungi kunda ham tarixiy tahlil va siyosiy strategiya tadqiqotlarining asosiy obyekti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.Hopkirk P. The Great Game. London, 1990, pp. 1–20, 240–265.
- 2.Morgan G. Anglo-Russian Rivalry in Central Asia 1810–1895. London, 1973, pp. 18–25.
- 3.Burnes A. Travels into Bokhara. London, 1834, Vol. II, pp. 210–230.
- 4.Moorcroft W. Travels in the Himalayan Provinces of Hindustan and the Panjab. London, 1841, pp. 500–520.
- 5.Izzut Oollah M. Travels in Central Asia. Calcutta, 1872, pp. 97–105.
- 6.Illhomov Z. O‘zbekiston tarixi. Toshkent, 2020, 215–218, 301–310-betlar.
- 7.Sodiqov H., Jo‘rayev N. O‘zbekiston tarixi. Toshkent, 2011, 71–73-betlar.
- 8.Becker S. Russia’s Protectorates in Central Asia. Cambridge, 1968, pp. 30–55.

9.Morrison A. Russian Rule in Samarkand 1868–1910. Oxford, 2008, pp. 55–70.

10.British Parliamentary Papers. Correspondence Relating to Central Asia. London, 1843.